


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionalallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 299.5

**ABU ISMOIL ABDULLOH ANSORIY TASAFUVIY QARASHLARINING FALSAFIY
TAHLILI**

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СУФИЙСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ АБУ ИСМАИЛА АБДУЛЛЫ
АНСАРИ**

**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SUFI VIEWS OF ABU ISMAIL ABDULLAH
ANSARI**

Kurbanova Umida Kamolovna 

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada Xoja Abdulloh Ansoriyning tasavvuf talimotining inson nafsiga oid ilmiy-falsafiy asoslari, tasavvuf g'oyalarining insonparvarligi, insonning ma'nnaviy dunyosiga chuqur kirib borish, bu ma'nnaviyatga ilohiy uchqun berishga ehtirosli tashnalik so'fiylah falsafasi, she'riyat va axloqining asosi ekanligi tahlil qilingan. Abdulloh Ansoriy g'oyalarining o'rni, Ansoriy ta'llimotida insonning ruhiy-ma'nnaviy yuksalish darajalari, buyuk tasavvuf namoyondalarining inson tarbiyasi bilan bog'liq qarashlari falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Abstract

This article analyzes the scientific and philosophical foundations of Khoja Abdullah Ansari's teachings on the human soul, the humanism of Sufi ideas, the deep penetration into the spiritual world of man, the passionate thirst to give a divine spark to this spirituality, which is the basis of Sufi philosophy, poetry and ethics. The place of Abdullah Ansari's ideas, the levels of human spiritual elevation in Ansari's teachings, and the views of great Sufi figures on the education of the soul are analyzed philosophically.

Аннотация

В статье анализируются научные и философские основы учения Ходжи Абдуллы Ансари о человеческой психике, гуманизм суфийских идей, глубокое проникновение в духовный мир человека и страстная жажда придать этой духовности божественную искру, что является основой суфийской философии, поэзии и этики. Философски анализируется место идей Абдуллы Ансари, уровни духовного роста человека в учении Ансари, взгляды великих суфийских деятелей на воспитание души.

Kalit so'zlar: Xoja Abdulloh Ansoriy, falsafa, tasavvuf, axloq, qadriyat, ma'nnaviyat, insoniylik, tarbiya, milliy qadriyatlar, ta'lif, ilm-fan, bag'rikenglik.

Key words: Khoja Abdullah Ansari, philosophy, mysticism, ethics, values, spirituality, humanity, upbringing, national values, education, science, tolerance.

Ключевые слова: Ходжа Абдулла Ансари, философия, мистицизм, этика, ценности, духовность, гуманность, воспитание, национальные ценности, образование, наука, толерантность.

KIRISH

So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblaymiz. Jahan miyosida dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida O'zbekistonda YUNESKO shafeligidagi Dinlararo muloqot va bag'rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz. Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, islomni ilm-ma'rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Abdulloh Ansoriy singari ulug' alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

O'lkamiz xalqlarining madaniyati, ilmiy-ma'nnaviy merosi diniy-milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan Abdulloh Ansoriy ta'llimotini mazmunan boyitgan. Jamiat hayotiga, umuminsoniy qadriyatlarning singib borishida mutafakkir ma'nnaviy merosi beqiyos ahamiyat kasb etgan. O'rta asrlarda Abdulloh Ansoriy asarlari ijtimoiy-ma'nnaviy hayotga kuchli ta'sir ko'rsatib, insonparvarlik, o'zaro hamjihatlik, halol mehnat qilishga undovchi tamoyillari bilan tasavvufning dunyoviy mohiyatini namoyon qilgan. Abdulloh Ansoriy faoliyatida falsafiy tasavvufiy ta'llimoti rivoji, tariqat g'oyalarining milliy-diniy qadriyatlarga sinkretlashuvidagi o'rnni umuminsoniy qadriyatlар va zamonaviy bilimlar bilan uyg'unlikda tadqiq etish zururatini saqlab qolmoqda.

FALSAFA

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulloh Ansoriyning badiiy merosini o'rgangan olimlar uning asarlaridagi tasavvuf va tariqatlar tushuncha hamda tamoyillarining qo'llanilishida qiyinchiliklarga duch keladilar. Chunki, Abdulloh Ansoriy merosidagi islam ilmlari bilan bog'liq tushuncha va kategoriyalarning mohiyatini bilish diniy va dunyoviy ilmlardan, so'fiy adabiyotdan xabardor bo'lishni talab etadi. Zero, Abdulloh Ansoriyni tushinish boshqa, uning ilgari surgan fikr va g'oyalarni anglash boshqa masaladir.

Sharq falsafasi, qolaversa, islam falasafasining o'ziga xos jihatlari, tushuncha va kategoriyalari yunon falsafasidan farqli tomonlari bilan ajralib turadi. Borliqning birligi va xilma-xilligi, juz va kul, birlik va ko'plik, vahdat va kasrat kabi ontologik mohiyatga ega tushunchalar Abdulloh Ansoriy merosining ontologik masalalarini ochib berishda muhim sanaladi.

Dunyoning etakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Abdulloh Ansoriy merosini o'rganish, undagi gumanistik g'oyalarning insonparvarlik maqsadlariga yo'haltirilgan tamoyillarini aniqlashga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. O'rta asr allomalarining ilmiy merosi ilm ahllari tomonidan zamonaviy ilm-fan va bilimlarning negizi sifatida tan olinmoqda. Abdulloh Ansoriy ilmiy merosining naqshbandiya tariqati bilan aloqadorligi va o'zaro bog'liqlik masalalari chuqr o'rganilmayotgani shu yo'nalishdagi tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni oshiradi. Buyuk mutafakkir Abdulloh Ansoriyning falsafiy tasavvufiy ta'lilotining rivojidagi mavqeyi, alloma ilgari surgan tasavvufiy-falsafiy qarashlarining diniy va dunyoviy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi nuqtai nazaridan atroflicha o'rganilmagani yangicha yondashuv va tadqiqotlar zaruratinu yuzaga keltirmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Yangi O'zbekistonda O'rta asrlarda diniy va dunyoviy sohada ilmiy izlanishlar olib borgan, faoliyat yuritgan buyuk allomalarimiz, pir-u murshidlarimiz merosini har tomonlama chuqr o'rganish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalardan yoshlarni intelektual salohiyatlari, ma'rifatlari, munosib vorislar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xoja Abdulloh Ansoriy zuhd uch narsada: dunyo, xulq, o'zlikda namoyon bo'ladi, deb yozgan. Zuhd so'zi harflariga shunday ma'no berilgan: "z" – tarki ziynat, "h" – tarki havo va "d" – tarki dunyo.

Zohidning a'zolari – boshi, ko'zi, tili, qulog'i, ayog'i nimalardan asranishi lozimligi haqida so'z yuritib, har solikkakim bu maqom tuyassar bo'lsa, oshnolig' sham'idin nur etgay va ul nur partavi aning ko'nglun masrur etgay.

Xoja Abdulloh Ansoriy "Sad maydon" asarida yozadi: "Az oshnoi to do'stdori hazor maqom ast, az ogohi to ba gustozi hazor manzil ast va in jumla bar sad maydon nihoda" (ya'ni, tanishishdan sevishga qadar yuz maqom bor, gustoqlikdan to ogohlilikka qadar 100 manzil bor).

Mutafakkir avliyolar amal qiladigan yuqoridaq ba'zi xislatlarga maxsus to'xtab o'tadi. Xususan, u halol luqma deganda, valiyning o'z mehnati bilan kun ko'rishini, biror kasb bilan mashg'ul bo'lib, uning orqasidan bir burda nonini topib eyishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiyalar muayyan bir kasb-hunar bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Navoiyning zikr qilishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo'z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu-Hafz Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayyin, Shayx Banon hammol, hazrati Bahouddin Naqshband esa, matolarga naqsh soluvchi bo'lganlar. Bulardan tashqari, Bahouddin Naqshband dehqonchilik bilan ham shug'ullanganlar. Mashoyix va avliyolar mehnat qilib topgan daromadiga hayot kechirganlar, ortib qolganini esa beva-bechora va muhtojlarga tarqatganlar, xayr-ehson qilganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, zohiriyl ilm botiniy ilmnинг asosi. Shu sababli madrasa ilmi so'fiylar uchun eng asosiy ilm hisoblangan. Uni chuqr egallagan, unga amal qilgan iste'dodlargina botiniy ilmlarga, kashfga ega bo'lishgan. Biroq ba'zi tariqat ahlining bilimlari mudarrislar ilmidan ham ilgarilab ketgan. Abdulloh Ansoriy rivoyat qilishicha, shayx Zunnuni Misriy shunday ta'kidlagan ekan: "Uch safar qildim va uch ilm keltirdim. Avvalgi safarda shunday bir ilm keltirdimki, xos kishilar ham, avom kishilar ham qabul qildi. Ikkinci safarda shunday bir ilm keltirdimki, xos kishilar qabul qildi va avomlar qabul qilmadi. Va uchinchi safarda shunday bir ilm keltirdimki, xos kishilar ham, avomlar ham qabul qilmadi. Natijada "qochoq, quvg'in va yolg'iz bo'lib qoldim". Shayx Abdulla Ansoriy uch ilmni shunday tasvirlaydi: "Avvalgi tavba ilmi erdi, uni xoslar ham, avomlar ham qabul qildilar. Ikkinchisi, tavakkul va muomalot va muhabbat ilmi edikim, xoslar qabul qildilar va avomlar qabul qilmadilar. Uchinchi, haqiqat ilmidurkim, elning ilm-u aqli toqatidin tashqari erdi. Xaloyiq ularni anglamadilar va Zunnuni Misriyini inkor qilishga kirishdilar".

So'fiylarning ta'kidicha inson - ichida ilohiylik joylashgan, ilohiylikni saqlovchi mavjudotdir. U hamma yoqda haqiqatni izlaydi, haqiqat esa uning o'zidadir.

Mutasavvif Yusuf Hamadoniyning ustozi murshidlari Xoja Abdulloh Ansoriy tasavvufning haqiqiy manbai haqida shunday deganlar:

Haqro ba dalili faylasufon matalab,
Dinro ba juz az hadisu Qur'on matalab,
Kishtii tu shar' va Nuhi tu Qur'on ast.
Be in du najoti xud az tufon matalab.

Tarjimas:

Haqni faylasuflar dalili bilan talab etma, izlama,
Dinni Hadis va Qur'onidan o'zga narsadan talab etma.
Sening kemang (qayig'ing) va Nuhing Qur'ondir.
Bu ikkisidan (tashqari) o'z najotingni to'fondan talab etma.

Shu yuqoridagi aytilgan ilohiylik darajasiga etish uchun ham avvalo aqliy bilish bosqichi bosib o'tiladi. Asli sifat va fazilatlarga ega bo'lgan insonning o'zi buyuk qadriyat ekanligini ta'riflab, uning zakovati aqliy qobiliyatiga yuksak baho berib, tasavvufning buyuk shayxlaridan Kubroviya tariqatining asoschisi Najmuddin Kubro shunday deydi: "Valiylik olam bolasiga azaldan nasibadir, chunki odam Parvardigorning suygan mahluqi. Yaratuvchi odamga aql ato qilgan, botiniy nur bergen, uni butun mavjudotdan afzal, sifatlari va xislatlari qilib yaratgan".

Xoja Abdulloh Ansoriyning tushuntirishicha, ruhiy-ma'naviy etuk, inson, eng avvalo, o'tkir aqlga ega, idroki, sezish qobiliyati, his-tuyg'ulari yuksak bo'lmog'i lozim. Xususan, zehn o'tkirligi kengroq mushohada yuritish uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi. Barkamol inson o'zining aql-hushini behudaga sarflamasligi, har bir so'zi aql-farosat tarozisida o'changan, fikr-mulohazasi pok e'tiqodiga mos tushmog'i, qilgan har qanday ishidan norozi bo'lmasligi, o'zining odobi bilan boshqalardan ajralib turmog'i, o'ylovsiz, noo'rin so'zi bilan birovning qalbiga shikast etkazmasligi, shirinsuxanligi bilan odamlar dardiga malham bo'lmog'i, andisha va ehtiyyotlilik chin so'zlash kundalik turmush tarzida barqaror bo'lmog'i darkor. O'shandagina u ruhiy mukammallik darajasiga etadi. Demak, Xoja Abdulloh Ansoriy inson avvalambor aql – tafakkuri bilan buyukligi, hissiy va aqliy bilish, ya'ni ratsionallik bilishning asosi ekanligini e'tirof etmoqda. Moddiy va ma'naviy borliq o'z tabiatiga ko'ra bir-biri bilan uzviy bog'liq dialektik jarayon bo'lganligidan, ularning in'ikosi bo'lgan inson bilishini ham dialektik jarayon ekanligi tariqat gnoseologiyasida o'z aksini topgandir. Xoja Abdulloh Ansoriy tariqati gnoseologiyasi insonni o'z-o'zini anglashga xizmat qiladi.

Hirot pirlaridan Abdulloh Ansoriy... O'z ashoblariga vasiyat qilib: "Har pirdan bir so'z eslab qoling, agar bu qo'lingizdan kelmasa, ularning ismini yod oling, bundan bahra topasiz", der edi.

Ey sening nomingdan yog'iladi ishq,
Noma – payg'omingdan yog'iladi ishq.
Ko'changdan kim o'tsa bo'ladi oshiq,
Eshigu tomingdan yog'iladi ishq...

Yuqoridagi misralarni tahlil qilar ekanmiz, Islom dinidagi muqaddas manba bo'lmish Qur'oni Karimdan so'ng ikkinchi o'rinda hisoblangan Hadisi sharifdagi "Olim bo'ling yoki ustoz tutib ularga ergashing, qo'lingizdan kelmasa, ular (Olimlar)ni sevuvchi bo'ling" mazmunidagi hadisga mosligini ko'ramiz. Misralarni tahlil qilganimizda quyidagi mazmun (ma'no) shakillanganligini ko'ramiz: Hirot pirlaridan (o'sha paytda Movarounnahr - Hirotda pirlar ko'p bo'lgan, misol uchun bilarga tanish: Jomiy, Navoiy kabi pirlar shular sirasidan) bo'lmish Abdulloh Ansoriyning o'z as'hoblariga qarata qilgan pand – nashihatlarini Ey sening nomingdan yog'iladi ishq, ya'ni, ustoz (pir)dan bir hikmat o'rganish maqsadida, u(ustoz – pir)ning nomi (ismi)dagi hikmat (o'xshatish san'ati bilan majoziy ma'no beradi) naqadar maftunkor, ya'niki, u(ustoz)ning ilmidan ko'plab insonlar manfaatdor bo'lishligi, shuning uchun uning nomidan yog'iladi ishq, uning nomiga ko'plab maqtovlar bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, birinchidan, Abdulloh Ansoriyning boy badiiy ijodi, falsafiy-tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qarashlari, xususan, komil inson, mukammal jamiyat, adolatli davlat to'g'risidagi g'oyalari adabiyotshunos olimlar, pedagog va faylasuflarning e'tiborini doimo o'ziga tortib kelgan. Ikkinchidan, Abdulloh Ansoriy yashagan davr va siyosiy-ijtimoiy vaziyat bu davrda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va gumanistik fikrlar rivojlanganini ko'rsatadi. Uchinchidan, bu davrda mamlakatni birlashtirish, ozod va obod qilish, buniyodkorlik ishlariiga katta e'tibor qaratildi. To'rtinchidan, tasavvufiy axloq va ta'lif-tarbiya

FALSAFA

masalalariga bag'ishlangan qator asarlar yaratildi. Beshinchidan, sho'rolar davrida Abdulloh Ansoriyning ijodi olimlar, faylasuflar tomonidan faqat dunyoviy jihatdan o'rganilgan, davrning ateistik siyosati talabidan kelib chiqib, diniy-tasavvufiy qirralari salbiy baholangan yoki ataylab chetlab o'tilgan. Oltinchidan, tadqiqotlarda Abdulloh Ansoriyning din va tasavvuf namoyandalariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganligi bo'rttirib ko'rsatilgani holda, uning diniy-tasavvufiy qarashlarining asl mohiyati oshib berilmagan. Yettinchidan, Abdulloh Ansoriy bizga ilmiy-adabiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-tasavvufiy, ma'naviy-axloqiy sohada boy meros qoldirdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абулҳасан Али бин Усмон ал-Жуллобий ал-Ҳажвирий ал Ғазнавий. Кашф ул-маҳжуబ. Қосим Ансорий нашри. Техрон: 1376 ҳ. - Б. 251
2. Крымский А. Крымский А. История Персии, её литературы и дервишеской теософии. Т. I. №4. - М., 1915.
3. Буюк юрт алломалари. Иккинчи нашр. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
4. Маънавият юлдузлари. Масъул мұхаррир М.Хайруллаев. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1999.
5. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
6. Мўминов И. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 61-68.
- Хайруллаев М.М. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 336.;
7. Хайруллаев М.М. Навоий дунёқарашининг ғоявий манбаларини ўрганиш ҳақида // Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 144-155.
8. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.
9. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
10. Холмўминов Ж. Нақшбандия таълимоти ва Марказий Осиё халқлари маънавий бирлиги (Рисола)-Т.:Янги нашр, 2018.